ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№4(2)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Elektron nashr. 324 sahifa,
13-aprel, 2026-yil.



**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E’zoza Gapirjanovna –** O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A’ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G‘.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg‘izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma’murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo‘ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)***
***Rejep O‘zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta’lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Doniyorov S. M. – “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G‘afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo‘limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent***



Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ
Hamkorlarimiz: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – **Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Alohida ehtiyojga muhtoj bolalarga matematika darslarida integratsion yondashuvni amalga oshirish ...... 10
Mamadjanova Ma'muraxon Kadirjanovna

O'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari ........ 13
Boltayeva Go'zal Komilovna

Inkluziv ta'lim sharoitida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini aniqlash metodologiyasi ........ 21
D. Sh. Jo'rayeva, J. A. Jovliyev

Bolalarda leksik-grammatik nutq kamchiliklarini bartaraf etishda kontekstli texnologiyalardan foydalanish ........ 25
Abdullayeva Yoqutjon Qalandar qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi ........ 30
Abduvaliyeva Sabina Kurbonali qizi

O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari ........ 35
Aripov Shokirjon Olimovich, Raxmatillayeva Sug'diyona Mahammadjon qizi

Pedagogik intuitsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodikalar ........ 39
Axmedov Jaloliddin Oribovich

The Impact of AI-Generated English Learning Materials Based on Uzbek Rural Life on the Learning Motivation of Rural Students ........ 42
Baxramova Malika Muzaffarovna

Raqamli kutubxonalarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish texnologiyalari va imkoniyatlari ...... 47
Choriyeva Zarina Anvarbek qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari ... 50
D. Teshaboyev, M. Sotvoldiyeva

Oliy ta'limda tblt metodik modeli asosida baholash tizimini takomillashtirish ........ 53
Djurayeva Nargiza Kudratillayevna

Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik etikaning rivojida xorijiy mamlakatlar tajribasi ........ 59
Dushayeva Nazokat Sharofiddinovna

Uilyam Shekspir tragediyalarining o'zbek adabiyotidagi o'rni ........ 62
Ergasheva Mehriyona

Qizlarning oilaviy kompetensiyasi uchun ijodiy pedagogika: Koreya dizayn ta'limi modelini O'zbekiston kontekstiga moslash ........ 65
G'ayratova Mohidil Zafar qizi

Jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish metodikasi ........ 69
Maksetova Nurjamal Kuatovna

Integrativ ta'lim muhitida bo'lajak surdopedagoglarning metodik kompetensiyalarini shakllantirish ........ 72
Malikova Xurshida Ikramovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ko'p uchraydigan tovush talaffuzi kamchiliklari va ularni bartaraf etishda lopedik usullar ........ 75
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi

Talabalarga an'anaviy xonandalik ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari ........ 78
Muxammatova Ozoda Muzrabovna

Hayotiy sifat tushunchasini psixologik mazmuni ........ 82
N. G. Pulatova

Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ehtiyojlarga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning kompleks yondashuvlari ........ 85
Nazarova Dildora Asatovna, Abdurashidova Feruza Qaxramonovna

Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchining ko'p qirrali pedagogik faoliyati va uning nazariy asoslari ........ 89
Nazarova Dildora Asatovna, Axmedova Aziza Temurovna

Xo‘ja ahmad Yassaviy e’tiqod tarbiyasi haqida ........ 93
Norova Sevara Uyg‘un qizi

Matritsa va uning determinanti mavzusini o‘qitish orqali bo‘lajak iqtisodchilarning analitik tafakkurini rivojlantirish texnologiyalari ........ 97
Nuritdinov Jalolxon Tursunboy o‘g‘li, Otaboyev Muxsinjon Muqimjonovich

Odam anatomiyasi darslarida interfaol va multimedia vositalaridan foydalanish yo‘llari ........ 104
Nurmatov Norqobil Jo‘rayevich, Qo‘chqorova Moxira Dilmurod qizi, Boxodirova Nilufar Ikrom qizi

AQSh ta’lim tizimining o‘ziga xos jihatlari va bugungi kundagi rivojlanishi ........ 110
Orishev Jamshid Bahodirovich

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda xorijiy ta’limi tajribalari ........ 116
Pardayeva Gulbahor Jalg‘ashovna

Kreativ ta’lim texnologiyalarining pedagogik mohiyati ........ 119
Sariboyev Nurali Abdunazarovich

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning zamonaviy pedagogik tizimdagi o‘rni ........ 122
Siddiqov Azamat Muhammadjon o‘g‘li

Konstruktiv yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida 4K ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi ........ 126
Sobirova Sarvinoz Quvondiqovna

Criteria of Scientific Activity Implementation of Physical Culture Education Students ........ 133
Sapayev Ruzmat Radjapovich

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarning ma’naviy ehtiyojlarini shakllantirishning nazariy asoslari ........ 136
Tilovova Qizlarxon Ishpulat qizi

PIRLS tadqiqotida so‘rovnomalarning qamrov doirasida maktab muhiti ........ 141
To‘qliyeva Matluba Boqiyevna

Onlayn til o‘rganish platformalarining esl o‘quvchilarining og‘zaki nutq ishonchi (speaking confidence) ga ta’siri ........ 146
Tojiboyeva Shohistaxon, Omonova Nargiza

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ o‘yinlarning ahamiyati ........ 151
Toshpo‘latova Sevinch O‘ral qizi

Maktab o‘quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalashning samarali uslublari ........ 155
Turdiyev Azam Xasanovich

O‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda xalqaro baholash tizimini tatbiq etish imkoniyatlari ........ 158
Turobov Mamarajab Sodiq o‘g‘li

Maktabgacha ta’limda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish ........ 163
Umirzoqova Surayyo Xudoyberdiyevna

Talabalarda perspektiv tasvir bajarishga oid ko‘nikmani shakllantirishda CAD dasturlaridan amaliy foydalanish imkoniyatlari ........ 165
Valiyev A’zamjon Nematovich, Toxirov Sardorbek Muzaffar o‘g‘li

Duduqlanishni bartaraf etishda qo‘llaniladigan usullar va vositalar ........ 173
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari ........ 176
Xudoyberdiyeva Dildora Nazarjon qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi

Duduqlanishga ega bolalar nutqini rivojlantirishda kompleks korreksion ishlar tizimi ........ 179
Xusanova Nozimaxon Zuxriddin qizi

Sirdaryo viloyatida tabiat va mehnat jarayonlarining tasviriy san’at orqali estetik va ekologik ifodasi ........ 182
Yorlaqova Malika Ahmad qizi

The Relevance of Artificial Intelligence in Teaching the English Language ........ 186
Yusupova Gulnoza Mirzoyevna

Umumta’lim maktabida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kuzatiladigan nutq xususiyatlari ........ 189
Zairova Nigora

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari .......... 193
**Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna**

Педагогические технологии совершенствования физических качеств как основы здорового образа жизни .......... 197
**Журабаев Абдукарим Маматкулович**

Формирование духовно-нравственной компетентности будущих учителей как педагогическая проблема .......... 200
**Зокиржонова Ф. Р., Рихситиллаева Д. Р., Меликузиева Ш. А.**

Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе .......... 203
**Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович**

Talaba yoshlarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar .......... 205
**Xojametov Ajiniyaz Andriyanovich**

Методика формирования познавательных интересов у младших школьников в процессе выполнения творческих заданий на уроках русского языка .......... 207
**Юлдашева Тахмина Бону Гайратовна**

Raqamli ta'lim texnologiyalari asosida ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tinglab tushunishga o'rgatish usullari .......... 210
**Abdurasulova Guljaxon Nabijon qizi**

Fan va tabiatshunosligi asoslari mashg'ulotlarida tajribalar orqali bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi .......... 215
**Abdusamatova Nargiza Jamolidinovna, Xudayberganova Muqaddam Abdurashitovna**

Bakteriofaglar tuzilishi va turlari (T-faglar) va ularning mikrobioekotizimdagi o'rni mavzusini o'qitish metodikasi .......... 222
**Abdunazarova Zulayxo Sharifqulovna, Xo'janazarov O'ktam Eshtemirovich, Samikova Sevinch Toshtemir qizi**

Bulung'ur doston ijrochiligining musiqiy xususiyatlari va ularni ta'lim jarayonida o'rgatishning pedagogik asoslari .......... 227
**Babajanov Baxodir Allaberganovich**

Activation of Students' Learning Activities Using Didactic Games .......... 230
**Daminova Munojat Abduvoxobovna**

Bolalar ensiklopediyasi vositasida tarbiyalanuvchilarning atrof-olam haqidagi tasavvurlarini shakllantirishning metodik shart-sharoitlari .......... 234
**Davlatova Guljaxon Kamoliddin qizi**

Innovatsion yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish .... 241
**Esanova Ro'shana Qurbonazarovna**

Kreativ tafakkurning texnik muammolarni samarali hal qilishdagi o'rni va ahamiyati .......... 248
**Imanov Baxtiyor Berdiyevich**

Adabiyot va teatr san'ati vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy xulq-motivlarni shakllantirishda faollik markazlarining didaktik imkoniyatlari .......... 253
**Inomova Dilnavoz Muzafar qizi**

Maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlari mehnatini huquqiy tartibga solishning xususiyatlari .......... 258
**Matekeyeva Bibinaz Mirjan qizi**

Badiiy-estetik qadriyatlar va ularning o'ziga xosliklari .......... 264
**Ostonova Gulrux Shuxrat qizi**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga sharq allomalarining kitobxonlikka munosabatini tarixiy yondashuv asosida o'rgatishning ijtimoiy-tarixiy, zamonaviy va pedagogik xususiyatlari .......... 268
**Parpibayeva Zulayho Rahimjon qizi**

Al-Xorazmiyning ilmiy merosi vositasida talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirishning metodologik asoslari .......... 272
**Qaxxorova Shaxnoza Abduvasit qizi**

Musiqiy-badiiy did tarbiyasining ilmiy nazariy asoslari .......... 276
**Rayimova Gavhar Karim qizi**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish........ 279
To'laboyeva Iqbolxon Olimjanovna

Malakaviy amaliyot orqali bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetentligini rivojlantiruvchi texnologiyalari.... 282
Tohirjonova Hulkaroy Baxodir qizi

Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilariga chang cholg'usida Shashmaqom kuylarini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari........ 288
Toshpo'lotova Zulxumor Davlatboy qizi

Talabalarda axborot madaniyatini shakllantirishning xususiyatlari ........ 292
Usmonov Sh. F.

The Formation of Human Capital In Education: A Pedagogical and Economic Analysis ........ 297
Uzoqova Shohida Mirzamurod qizi

“Птицы во рту” Саманты Швеблин: каннибализм нежности и зооморфный код магического реализма ........ 302
Каримов Зиёахмад Алишер угли

Формирование профессиональных качеств будущих учителей через активизацию учебной деятельности студентов с использованием дидактических игр в педагогических вузах........ 307
Расулова Исмигуль, Якубова Зухра

Bolalar adabiyotini rivojlantirishda innovatsion yondashuv ........ 311
Mirzayeva Nigora Bozorovna

Issues of Developing Communicative Competence in Future Teachers from the Point of View of an Andragogical Approach........ 314
Nishanova Mastura Khafizovna

Raqamli va innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida adabiy kompetensiyalarni rivojlantirish modeli........ 317
Islomova Xafiza Azamatovna

# ADABIYOT VA TEATR SAN'ATI VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJOBIY XULQ-MOTIVLARNI SHAKLLANTIRISHDA FAOLLIK MARKAZLARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Inomova Dilnavoz Muzafar qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
"Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi" (maktabgacha ta'lim)
2-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda ijobiy xulq-atvor motivlarini shakllantirishda faollik markazlarining didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Faollik markazlari orqali bolalarning mustaqil faoliyati, ijtimoiy munosabatlari, hamkorlik ko'nikmalari va axloqiy sifatlarini rivojlantirish mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan faol muhitning tarbiyaviy ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** faollik markazlari, ijobiy xulq-atvor, motivatsiya, maktabgacha ta'lim, didaktik imkoniyatlar, pedagogik texnologiyalar, bolalar rivoji, ijtimoiy ko'nikmalar, tarbiya, faol o'yin.

**Abstract:** This article analyzes the didactic potential of activity centers in the formation of positive behavioral motivations in preschool children. It highlights the mechanisms for developing independent activity, social interaction, cooperation skills, and moral qualities through activity-based learning environments. Additionally, the educational significance of an environment organized using modern pedagogical technologies is revealed.

**Key words:** activity centers, positive behavior, motivation, preschool education, didactic potential, pedagogical technologies, child development, social skills, upbringing, play-based learning.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются дидактические возможности центров активности в формировании положительных поведенческих мотивов у детей дошкольного возраста. Освещаются механизмы развития самостоятельной деятельности, социальных отношений, навыков сотрудничества и нравственных качеств у детей через организацию деятельности в центрах активности. Также раскрывается воспитательное значение образовательной среды, организованной на основе современных педагогических технологий.

**Ключевые слова:** центры активности, положительное поведение, мотивация, дошкольное образование, дидактические возможности, педагогические технологии, развитие детей, социальные навыки, воспитание, игровая деятельность.

## KIRISH

Maktabgacha yosh – bu bola shaxsining asosiy psixologik, axloqiy va ijtimoiy sifatlari shakllanuvchi eng muhim bosqichlardan biridir. Aynan shu davrda bolaning atrof-muhit, tengqurlar va kattalar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlari, ularning xatti-harakatlari va qadriyatlarini idrok etish orqali ijobiy yoki salbiy motivlar shakllana boshlaydi. Mazkur bo'limda aynan ijobiy xulq motivi tushunchasining mazmuni, mohiyati va uning bolalar rivojidagi o'rni nazariy jihatdan chuqur tahlil qilinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Motiv" atamasi lotincha "movere" – harakatlantirmoq, turtki bermoq degan ma'noni anglatadi. Psixologiyada u shaxsning faoliyatga bo'lgan ichki undovchisi, uning ehtiyojlari, qiziqishlari, his-tuyg'ulari va qadriyatlaridan kelib chiqadigan ongli, maqsadga yo'naltirilgan harakatlar majmui sifatida talqin qilinadi. A.N. Leontev motivni inson faoliyatining asosiy strukturaviy komponenti sifatida ko'radi va uni faoliyatning mazmunini belgilovchi psixik kuch deb ta'riflaydi.

Ijobiy xulq motivi esa bolaning ichki ehtiyojiga asoslangan, jamiyat tomonidan ijobiy deb baholanuvchi axloqiy me'yor va qadriyatlarga mos harakatlarga yo'naltirilgan ruhiy holatdir. Bu motivlar bolaning axloqiy dunyoqarashi, odob-axloq normalariga sodiqligi va boshqalar bilan hamkorlikdagi munosabatlarida o'z ifodasini topadi.

Ijobiy xulq motivlari turli psixologik tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Axloqiy motivlar: halollik, rostgo'ylik, yordam berishga tayyorlik, adolatli bo'lish;
2. Estetik motivlar: go'zallikni qadrlash, tartibga rioya qilish, badiiy didning shakllanishi;
3. Kognitiv motivlar: bilim olish, yangi narsalarni o'rganishga bo'lgan ishtiyoq;
4. Ijtimoiy motivlar: jamoada maqbul bo'lish, do'stlar bilan kelishish, o'ziga bo'lgan bahoni oshirish;
5. Shaxsiy motivlar: o'zini anglash, mustaqil qaror qabul qilish, ichki qoniqish.

Bu motivlar bolaning individual xususiyatlari, ijtimoiy tajribasi, atrof-muhitdagi munosabatlar va tarbiya usullariga qarab shakllanadi va takomillashadi.

Ijobiy xulq motivlarini shakllantirishda quyidagi omillar muhim o'rin tutadi:

1. **Oila muhiti** – bola hayotidagi birinchi ijtimoiy muhit bo'lib, unda mehr-muhabbat, axloqiy qadriyatlar, namunali xatti-harakatlar orqali dastlabki motivlar shakllanadi.
2. **Maktabgacha ta'lim tashkiloti** – bolalarda o'zaro hamkorlik, navbat kutish, mehnatga munosabat, ijtimoiy rollarni bajara olish ko'nikmalari orqali motivlar kengaytiriladi.
3. **Tarbiyachi shaxsi** – uning nutqi, harakati, muomalasi bolalar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Tarbiyachining motivatsion yondashuvi bolalarning ichki dunyosiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.
4. **O'yin faoliyati** – maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asosiy rivojlantiruvchi vosita hisoblanadi. Rolli, dramatik, stol-ijodiy o'yinlar orqali ijobiy xulq motivlari ongli ravishda mustahkamlanadi.
5. **San'at vositalari** – ertaklar, bolalar adabiyoti, teatr, musiqa va tasviriy san'at bolalarda yaxshi bilan yomon, ezgulik bilan yovuzlik orasidagi farqni tushunishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda zamonaviy pedagogika va psixologiyada ijobiy xulq motivlarini shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv tarbiya, emotsional intellekt nazariyasi, shuningdek, insonparvar pedagogika tamoyillariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, D. Golemanning emotsional intellekt konsepsiyasi bolalarda o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va boshqalarning holatiga empatiya bilan yondashishni o'rgatish orqali ijobiy xulq motivlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bolalar rivojida ijobiy xulq motivining ahamiyati:

- ijtimoiy moslashuvi;
- o'zini tutish qoidalariga amal qilishi;
- muloqot va hamkorlik madaniyatini egallashi;
- kelajakda mustaqil, mas'uliyatli va ongli shaxs bo'lib shakllanishiga asos bo'ladi.

Motivatsiyaning yo'nalishi va barqarorligi bolaning psixik rivoji darajasini belgilaydi. Shuning uchun maktabgacha yosh davrida ijobiy xulq motivlarini shakllantirish jarayoni ilmiy asoslangan, izchil, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ijobiy xulq motivlarini shakllantirishda faollik markazlarining didaktik imkoniyatlari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan faollik markazlari (ingliz tilida "learning centers" yoki "activity centers") – bu bolalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan, didaktik jihatdan mo'ljallangan va aniq maqsadli kichik makonlardir. Har bir faollik markazi muayyan ko'nikma, qiziqish yoki motivatsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, bola u yerda o'ziga mos tezlikda, qiziqish asosida faoliyat yuritadi.

Ijobiy xulq motivlari – bu bola ongida shakllanuvchi ijobiy niyatlar, ijtimoiy jihatdan maqbul xatti-harakatlarga intilish, boshqalarga yordam berish, hamkorlik, halollik, intizomlilik kabi sifatlarni o'z ichiga oladi. Bu motivlar bolaning keyingi shaxsiy kamolotida muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Faollik markazlari ijobiy xulq-motivlarni shakllantirishda quyidagi didaktik imkoniyatlarga ega:

**Mustaqillik va tanlov erkinligi orqali ijobiy motivatsiyani shakllantirish.** Faollik markazlarida bolalar o'zlari xohlagan faoliyat turini tanlaydi. Bu ularda:

- mas'uliyat hissi;
- o'ziga bo'lgan ishonch;
- qaror qabul qilish ko'nikmasi;
- o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlik kabi ijobiy xulq-motivlar shakllanishiga xizmat qiladi.

**Qiziqarli va maqsadli faoliyat orqali ichki motivatsiyani rag'batlantirish.** Didaktik o'yinlar, konstruktorlar, badiiy ijod markazlari, sensor stollar orqali bolalar:

- faol ishtirok etadi;
- ijodiy fikrlaydi;
- o'z his-tuyg'ularini ifodalaydi;
- bu esa ularning ijtimoiy va emotsional jihatdan ijobiy rivojlanishiga olib keladi.

**Hamkorlik va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.** Ayrim faollik markazlari (masalan, rolli o'yinlar markazi, kitob markazi) guruh bilan ishlashni talab qiladi. Bu esa bolalarda:

- o'zaro yordam;
- navbat kutish;
- fikr almashish;
- boshqalarni hurmat qilish;
- kelishuvga erishish kabi ijobiy xulq-motivlarni rivojlantiradi.

**Didaktik vositalar yordamida ijtimoiy-axloqiy tushunchalarni mustahkamlash.** Faollik markazlarida:

- axloqiy ertaklar;
- situatsion kartochkalar;
- "nima yaxshi – nima yomon" o'yinlari;
- "men yordam berdim", "men rost gapirdim" kabi mavzulardagi topshiriqlar orqali ijtimoiy va axloqiy normalar ongli ravishda o'zlashtiriladi.

**Refleksiv faoliyat orqali o'zini baholash va xulqini anglash.** Ba'zi markazlarda (masalan, "Hissiyotlar burchagi", "Kunim qanday o'tdi?" burchagi) bola o'z xatti-harakatini tahlil qiladi. Bu orqali:

- o'z his-tuyg'ularini anglash;
- boshqa bolalarga nisbatan empatiya;
- o'zini boshqarish va xulqini nazorat qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Faollik markazlarining turlari va ularning xulq-motivlarga ta'siri:

1. Faollik markazi turi – xulq-motivga ta'siri.
2. Badiiy ijod markazi – ijodkorlik, sabr-toqat, ishni yakuniga yetkazish.
3. Kitob (o'qish) markazi – axloqiy qadriyatlar, e'tibor, tinglash madaniyati.
4. Rolli o'yinlar markazi – empatiya, ssenariy asosida harakat qilish, o'zini boshqalarning o'rniga qo'yish.
5. Qurilish va konstruktor markazi – mantiqiy fikrlash, tartib-intizom, muvofiqlik.
6. Hissiyotlar markazi – o'z his-tuyg'ularini anglash va ifodalash, boshqalarni tushunish.
7. Tabiat bilan tanishuv markazi – g'amxo'rlik, atrof-muhitga mehr-muhabbat, sabr.
8. Ijtimoiy o'yinlar markazi – jamoa bilan ishlash, o'zaro hurmat, rahbarlik va ergashuv madaniyati.

**Metodik tavsiyalar:** Faollik markazlari bola yoshiga mos, xavfsiz va didaktik materiallarga boy boʻlishi lozim.

Har bir markazda xulq-motivlarga yoʻnaltirilgan topshiriqlar tizimi ishlab chiqilishi kerak. Tarbiyachi faoliyatni boshqaruvchi emas, balki kuzatuvchi va yoʻnaltiruvchi rolida boʻlishi muhim. Teatr san'ati asosida bolalarda ijobiy xulq-motivni shakllantirish tamoyillari va omillari. Zamonaviy ta'lim tizimida bolalar axloqiy tarbiyasi va ularning ijobiy xulq-motivlarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Ayniqsa, maktabgacha yosh bu borada eng muhim poydevor bosqichi boʻlib, bolada jamiyatda maqbul boʻlgan axloqiy fazilatlar – hurmat, halollik, birdamlik, doʻstlik, rahm-shafqat, fidoyilik kabi sifatlarga yoʻnalgan ichki motivatsiya asoslari aynan shu davrda shakllanadi.

Ijobiy xulq-motiv – bu bolaning ongli, ijtimoiy qabul qilingan va axloqiy me'yorlarga mos xatti-harakatga nisbatan ichki intilishidir. Bunday motivlar bolada oʻz xatti-harakatlarini boshqalar manfaatini hisobga olgan holda boshqarish, mas'uliyatli qarorlar qabul qilish va oʻzini tahlil qilish imkonini beradi. Bu borada teatr san'ati keng imkoniyatlarga ega. U bolalarda ijobiy axloqiy sifatlarni his etish, anglash, baholash va ularga amal qilishga boʻlgan ichki ehtiyojni shakllantirishga xizmat qiladi.

Teatr – bu estetik tarbiya vositasi boʻlish bilan birga, axloqiy dunyoqarashni shakllantiruvchi kuchli pedagogik vositadir. Teatr san'ati asosida ijobiy xulq-motivni shakllantirishda amal qilinadigan asosiy tamoyillar:

1. Didaktik-emotsional tamoyil – teatr mashgʻulotlari orqali bolaning axloqiy bilim va tushunchalari nafaqat aqliy, balki emotsional darajada ham singdiriladi. Hissiyotlar orqali axloqiy obrazlar bola ongiga chuqurroq singadi.
2. Shaxsga yoʻnaltirilganlik tamoyili – har bir bolaning qiziqishlari, qobiliyati, individualligini inobatga olgan holda rollar tanlanadi va ularning teatr faoliyatidagi ishtiroki mos ravishda yoʻnaltiriladi. Bu esa ichki motivatsiyani uygʻotadi.
3. Koʻrgazmalilik va tasviriylik tamoyili – sahna obrazlari, mimika, musiqiy ifoda, dekoratsiyalar bolalarning xayoloti, his-tuygʻulari va axloqiy tasavvurlarini boyitadi.
4. Faollik va ishtirokchilik tamoyili – bola nafaqat tomoshabin, balki faol ishtirokchi sifatida teatr faoliyatida qatnashadi, bu esa ijobiy xulq-harakatlarni oʻzlashtirish jarayonini kuchaytiradi.
5. Reflektiv yondashuv tamoyili – sahna asarlaridan soʻng bolaning oʻz xatti-harakatlarini tahlil qilishiga, obrazlarga baho berishiga yoʻl ochiladi. Bu esa axloqiy refleksiya koʻnikmasini shakllantiradi.

Teatr orqali ijobiy xulq-motivlarni shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar:

1. Pedagogning teatr texnologiyalarini qoʻllash malakasi – muvaffaqiyatli teatr mashgʻulotlari koʻp jihatdan pedagogning sahnalashtirish, obraz tanlash va dramatik topshiriqlarni ishlab chiqishdagi malakasi hamda pedagogik mahoratiga bogʻliq.
2. Mazmunli ssenariylar tanlovi – xalq ertaklari, milliy va zamonaviy badiiy asarlar asosida tayyorlangan ijobiy mazmundagi sahna koʻrinishlari orqali axloqiy qadriyatlar singdiriladi. Ayniqsa, ijobiy va salbiy obrazlar qarama-qarshiligi orqali bolaning axloqiy tanlov koʻnikmasi shakllanadi.
3. Oʻyinli teatr faoliyatlari – qoʻgʻirchoq teatri, stol usti teatrlari, pantomima, dramatik mashqlar, improvizatsion chiqishlar bolaning aktyorlik salohiyatini, ifodali nutqini va xayoliy tafakkurini rivojlantiradi.
4. Jamoaviylik muhiti – bolalar teatr faoliyatida doʻstlik, oʻzaro yordam va muloqot madaniyati kabi ijtimoiy fazilatlarni amalda oʻzlashtiradilar.
5. Axloqiy-estetik muhit – sahnalashtirish uchun yaratilgan ijobiy estetik muhit, rang-barang dekoratsiyalar va obrazlar tasviri bolaning hissiy olamini boyitadi hamda xatti-harakat motivlariga ijobiy ta'sir koʻrsatadi.
6. Oilaviy qoʻllab-quvvatlash – bola teatr faoliyatida olgan axloqiy taassurotlarini oilada davom ettirsa, ularning barqaror motivga aylanishi tezlashadi.

Shunday qilib, teatr san'ati asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy xulq-motivlarni shakllantirish jarayoni murakkab, ammo samarali pedagogik jarayondir. U maxsus tamoyillar asosida tashkil etilsa va muayyan omillar ta'sirida yoʻnaltirilsa, bola nafaqat oʻz xulqini tartibga sola oladigan, balki ijtimoiy jihatdan faol, axloqiy barkamol shaxs sifatida shakllanishi mumkin.

## XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy xulq-motivlarni shakllantirish – bu ularning axloqiy rivojlanishiga asos bo‘luvchi, shaxsiy va ijtimoiy muhitda maqbul bo‘lgan xulq me’yorlariga ongli tarzda amal qilishga yo‘naltirilgan ichki intilishlarni tarkib toptirish jarayonidir. Bu motivlar bola shaxsining ma’naviy-axloqiy poydevorini barpo etishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ijobiy xulq-motivlarni shakllantirishda teatr san’ati va adabiyotning estetik, emotsional hamda tarbiyaviy ta’sir kuchi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional sezuvchanligi, obrazli tafakkuri va taqlidga moyilligi teatr vositalari orqali axloqiy qadriyatlarni chuqurroq anglashlariga imkon yaratadi.

Teatr san’ati bolaning hissiy olamini boyitadi, tasavvur va xayolotini kengaytiradi, sahna obrazlari orqali axloqiy fazilatlarni mustahkamlab boradi. U bola faol ishtirok etadigan, emotsional-ta’sirchan va ijtimoiy ahamiyatga ega tarbiya vositasi sifatida ijobiy xulq-motivlarni shakllantirishga bevosita xizmat qiladi.

Adabiy va teatr asarlari asosida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar bola ongida yaxshilik va yomonlik, to‘g‘ri va noto‘g‘ri, haqiqat va yolg‘on tushunchalarini ajrata olish, axloqiy tanlov qilish hamda mas’uliyat hissini uyg‘otish imkonini beradi.

Teatr san’ati asosida ijobiy xulq-motivlarni shakllantirishda quyidagi tamoyillar muhim ahamiyatga ega: shaxsga yo‘naltirilganlik, emotsional-ta’sirchanlik, faollik va ishtirokchilik, refleksiya hamda bosqichma-bosqichlik. Ular asosida tashkil etilgan teatr mashg‘ulotlari orqali bola o‘z xatti-harakatini anglash, tahlil qilish va boshqarishga o‘rganadi.

Teatr faoliyatining samaradorligi pedagogning kasbiy mahorati, didaktik yondashuvlar, o‘yinli dramatik mashg‘ulotlar hamda oilaviy qo‘llab-quvvatlash kabi omillarga bevosita bog‘liq bo‘lib, ular birgalikda bola shaxsida ijobiy xulq-motivlarning barqaror shakllanishini ta’minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. Maktabgacha ta’lim vazirligi MH-1-son buyrug‘i. T.: 2018-yil 18-iyun. – 31 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-595-son / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2019-yil 17-12, 03/19/595/4160-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti. 2020-yil 8-12, 802-son qaror.
4. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay’at yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan. – T.: 2018-yil – 59 b.
5. Avazovna, Xidoyatova Nigora. “Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish.” World Scientific Research Journal, 7.1 (2022): 3–5.
6. G‘affarovna, Muhabbat Mamatmo‘minova. “Maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy tillarni o‘rgatish usullari.” Zamonaviy fan va ta’lim yangiliklari xalqaro ilmiy jurnal, 1.4 (2023): 5–13.
7. Gulnoza, Xalbayeva. “Maktabgacha yoshdagi bolalar bilish jarayonlarini rivojlantirishda sensor tarbiyaning o‘rni.” Research and Education, 1.7 (2022): 163–172.
8. Hamroyeva, N. N. “Ona tili – maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini kengaytirish vositasi sifatida.” Научный Фокус, 1.2 (2023): 1050–1055.
9. Kamilova, Matluba Imomovna. “Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining xususiyatlari.” Golden Brain, 2.3 (2024): 177–180.
10. Kurbonova, Yulduz Djumaevna. “Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurining rivojlanishidagi o‘ziga xosliklar.” Educational Research in Universal Sciences, 2.6 (2023): 394–398.
11. Yuldasheva, D. “Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining lingvistik xususiyatlari.” Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 3.4 (2023): 160–162.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №4(1)**



© Materiallar koʻchirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.